



Rauf Tolib 1946-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. Shoirning “Ona yurt”, “Eshitmadim demanglar”, “Yurt mehri”, “Osmon bogʻ”, “Mirjalol nega lol?”, “Sehrgar doʻstim bor”, “Qiziq tomosha”, “Hamma hayron”, “Jirafaning boʻyni nega uzun?” kabi oʻndan ortiq kitoblari nashr etilgan.



Aralashtirib berilgan harflardan soʻzlar hosil qilsangiz, yurtimizdagi koʻllar nomini bilib olasiz.

daroʻlayk

samiqarish

sanaroy



## Orolim

*Rauf Tolib*

– Ey bolajon, bolajon,  
Qanday oʻylar dilingda?  
Oʻltiribsan parishon,  
Bahor yashnar elingda.  
– Mehmon gʻozlarim, koʻring,  
Tabiat topdi zavol.  
Suvsiz qolib daryolar,  
Qurib bormoqda Orol.

– Ey, bolajon, bolajon,  
Qo‘y, o‘rtanma alamda.  
Biz-la yurt kez,  
Yo‘llar osh,  
Dengiz ko‘p-ku, olamda?...  
– Dengizlar ko‘p,  
Ko‘llar ko‘p,  
Olam kengdir, kattadir.  
Men-chun yurtim yagona,  
Ona Orol bittadir.



1. She'r kimning tilidan aytilgan?
2. Sizingcha, bola nima haqida o'ylar edi?
3. Orol dengizining qurishiga nima sabab bo'lgan deb hisoblaysiz?
4. "Tabiat topdi zavol" deganda nimani tushundingiz?
5. She'rdagi ushbu satrlar nimani anglatishi haqida o'ylab ko'ring:

*Men-chun yurtim yagona,  
Ona Orol bittadir.*



**parishon** – bir yerga to‘planmagan, tarqoq  
**zavol** – halokatga yuz tutgan



She'ni rollarga bo'lib o'qing.  
She'r qahramonlariga o'z munosabatingizni bildiring.  
Qofiyadosh so'zlarni aniqlang.



**Bilasizmi, Orol dengizi aslida ko'ldir. U qadimdan dengiz kabi katta, suvi sho'r va taxir bo'lgani uchun dengiz deb atalgan. Hozir esa qurib, bir nechta ko'llarga ajralgan. Orol dengizi suvining keskin kamayishi shamol ta'sirida yon-atrofga tuz tarqalishiga olib keldi. Natijada, yer sho'rlanishi kabi muammolar avj oldi. Odamlarning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.**



O'qiganlaringiz asosida Orol haqida

- 3 ta fikr ayting;
- 2 ta savol tuzing.



She'ni ifodali yod oling.